



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Мухаммедович Мухаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Амир Темурнинг одилона иқтисодий сиёсати – кудратли империянинг шаклланиш ва ривожлантириш омили	5
Дилфуза Олимбоевна Матёкубова Бизнес тузилмаларини инновацион ривожлантириш учун диверсификация стратегиясини танлаш истиқболларини баҳолаш тартиби ва усуллари	12
G‘ayrat Zuvaytovich Ubaydullaev Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyalarini amalga oshirish inson kapitali samaradorligini oshiradi	16
Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva, Madina Isoqjonovna Oxunjonova Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari	21
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Гулнора Мардиевна Шадиева Влияние инновационных процессов на экономическое развитие Республики Узбекистан: теоретические аспекты	26
Omonilla Saydaminovich Umarov, Abdulxay Xasanboyevich Xodjayev Iqtisodiy xavfsizlikini ta’minlashda ochiq ma’lumotlar sohasining ahamiyati	31
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Рузбой Нормухаматов, Уктам Абдуғани ўғли Абдурайимов Мева-сабзавотларда бўладиган нитратлардан келадиган хавфлар ва уларнинг олдини олиш йўллари	35
Гулнора Мардиевна Шадиева, Умида Равшановна Равшанова Теоретические аспекты занятости в сельском хозяйстве и их влияние на развитие экономики Республики Узбекистан	38
Сусанна Сейрановна Алиева Солнечная энергетика в тепличном хозяйстве	44
Zaxriddin Vasliddin o‘g‘li Usubjonov Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi	49
Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li Turg‘unov Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarish masalalari	55
Абдухолик Эгамович Тангиров Чўл-яйлов чорвачилиги хўжаликлари ва уларни бошқаришдаги айрим муаммолар	58
Mirodiljon Xasanboy o‘g‘li Xomidov O‘zbekiston Respublikasi avtomobilsozlik korxonalarida sanoat kooperatsiyasini tashkil etish va foydalanishning iqtisodiy ahamiyati	62
Xakim Toshimovich Buriyev Qurilish sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy asoslari	66
МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Саидахроп Саидахмедович Ғуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ўзбекистонда таълим самарадорлигини ошириш ва камбағалликни қисқартириш бўйича айрим тавсиялар	72
Обид Мамаюнусович Пардаев Кўп ўлчовли камбағалликни аниқлашнинг янги индикаторлари ва уларнинг моҳияти	78

12. Sethi V.P., Sharma S.K. Survey of cooling technologies for worldwide agricultural greenhouse applications. *Sol Energy* 2007. – №81. – pp. 1447-1459.
13. Song R., Kelman D., Johns K.L., Wright A.D. Correlation between leaf age, shade levels, and characteristic beneficial natural constituents of tea (*Camellia sinensis*) grown in Hawaii. *Food Chem* 2012. – №133. – pp. 707-714;
14. Timilsina G.R., Kurdgelashvili L., Narbel P.A. Solar energy: markets, economics and policies. *Renew Sustain Energy Rev* 2012. – №16. – pp. 449-465.
15. Wang Y., Gao L., Shan Y., Liu Y., Tian Y., Xia T. Influence of shade on flavonoid biosynthesis in tea (*Camellia sinensis* (L.) O. Kuntze). *Sci Hortic* 2012. №141. pp.7-16.
16. Yano A., Furue A., Kadowaki M., Tanaka T., Hiraki E., Miyamoto M., et al. Electrical energy generated by photovoltaic modules mounted inside the roof of a north-south oriented greenhouse. *Biosyst Eng* 2009. – №103. – pp. 228-238;
17. Данные Министерства энергетики Республики Узбекистан. <https://minenergy.uz/ru/news/view/3617>
18. До 2035 года спрос узбекистанцев на электроэнергию будет расти ежегодно на 5-5,3%. [Электронный ресурс]. <https://kun.uz/ru/news/2023/01/31/do-2035-goda-spros-uzbekistansev-na-elektroenergiyu-budet-rasti-yejyegodno-na-5-53>.
19. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. www.stat.uz

<p>S. Aliyeva</p> <p>Issiqxona xo‘jaliklarida quyosh energiyasi</p> <p>Annotatsiya. Maqolada issiqxonalarining ekologik nazorat tizimlarida quyosh energiyasidan foydalanish texnologiyalari muhokama qilinadi. Issiqxona ekinlarini yetishtirishda energiya eng katta xarajatlar manbai hisoblanadi. Atrof-muhitga salbiy ta’sirlar, cheklangan qazib olinadigan yoqilg‘i va yuqori energiya iste‘moli quyosh energiyasiga bo‘lgan talabning oshishiga olib keldi. Shuningdek, maqolada ushbu texnologiya bilan bog‘liq muammolar qisqacha muhokama qilinadi.</p> <p>Kalit so‘zlar: elektr energiyasi, quyosh energiyasi, issiqxona xo‘jaligi, muqobil energiya, isitish, xarajatlar, ekologiya.</p>	<p>S. Alieva</p> <p>Solar energy in greenhouse farming</p> <p>Abstract. The paper discusses technologies for using solar energy in environmental control systems of greenhouses. Energy is the largest overhead cost in greenhouse crop production. Negative environmental impacts, limited fossil fuels and high energy consumption have led to an increase in the demand for solar energy. Additionally, the article briefly discusses the problems associated with this technology.</p> <p>Keywords: electricity, solar energy, greenhouse farming, alternative energy, heating, costs, ecology.</p>
---	---

Zaxriddin Vasliddin o‘g‘li Usubjonov – Namangan muhandislik-texnologiya instituti, “Marketing” kafedrasida assistenti, PhD.

NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH SANOATINING RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda keyingi yillarda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘rganilgan. Namangan viloyati va O‘zbekiston Respublikasida 2017-2022-yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish, amalga oshirilgan qurilish ishlari va qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi tahlil etilgan. Qurilish materiallari sanoati va qurilish materiallari bozorini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Qurilish materiallari bozori, sanoat salohiyati, chakana savdo aylanmasi, mahalliy sanoat, qurilish ishlari, qo‘shimcha qiymat zanjiri, drayver.

Kirish. Qurilish materiallari sanoatini rivojlanishi, aholini turmush darajasini ta’minlovchi muhim jarayon bo‘lib, mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy siyosat natijasini ham ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi №PQ-4335 “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida^[1]”gi qarorida qayd etilganidek, O‘zbekistonda, keyingi yillarda raqobatbardosh qurilish mahsulotlarni

ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish suratlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur qaror bilan 2019-2025-yillarda mahalliy xomashyo geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasini kengaytirish prognoz ko'rsatkichlari hamda 2019-2025-yillarda diversifikatsiya qilish va mahsulot turlarini kengaytirish hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan. Shu bilan birga, mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarning eksport qilinayotgan mahsulotini sertifikatlashtirish bo'yicha xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Eksportni rivojlantirish agentligi tomonidan qoplanadi va boshqa soliq va bank foiz-stavkalaridan imtiyozlar ko'zda tutilgan. Qarorda qurilish materiallari sanoatini innovatsion rivojlantirish, talab yuqori bo'lgan sifatli mahsulot turlarini kengaytirish, shuningdek, tarmoqning eksport salohiyatini oshirishga doir ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish va boshqalar belgilab berilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi PF-6244-son "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida qayd etilganidek, hududlarda mavjud sanoat salohiyatidan, ayniqsa, qurilish industriyasini rivojlantirishda noruda minerallarning xomashyo bazasini o'zlashtirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Qurilish materiallari va boshqa mahalliy sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga ko'maklashuvchi yaxlit tizimni yaratish, shuningdek, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish maqsadida:

—mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslarni jalb qilish, tumanlar (shaharlar) salohiyatini ishga solish va ularning nisbiy ustunliklaridan foydalanish asosida mahalliy sanoatni rivojlantirish «drayverlari» bo'lgan tarmoqlarni aniqlash;

—tarmoqlarning ichki va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, korxonalarni global ishlab chiqarish zanjirlariga jalb qilish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni uchinchi davlatlarga hamkorlikda eksport qilishni yo'lga qo'yish;

—«qo'shimcha qiymat zanjirlari»ni kengaytirish, ishlab chiqarish tannarxi va xarajatlarini kamaytirish, tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;

—zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda mahalliy sanoat korxonalari uchun professional kadrlar tayyorlash, trening dasturlaridan keng foydalanish va boshqa bir qator vazifalar belgilangan^[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qurilish materiallari bozori muammolarining metodologik-nazariy asoslari, jahondagi yetuk olimlar E.Chemberlin^[3], J.Tirol^[4], F.Sherer va D.Ross^[5]lar va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ular asosan: qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga bog'liq nazariyalar; bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muammolar; raqobatbardosh mahsulot va bozorlar; mintaqalarda qurilish materiallari bozorining o'ziga xosligini nazariy jihatlar; MDH olimlaridan S.B. Andashev^[6], A.Vuros^[7], N.M. Rozanov^[8], I.S.Rafael^[9], V.A.Jukov^[10] lar tomonidan raqobatdosh bozorlar nazariyasi, sanoat korxonalari ishlashiga ta'sir qiluvchi mintaqaviy omillar va qurilish materiallari bozorini boshqarish muammolari tadqiq etilgan; O'zbekistonlik olimlardan A.D.Sultonov^[11] tomonidan qurilish materiallari ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi vositachi korxonalarining marketing faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan; D.Y.Matrizayeva^[12] esa sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishning ilmiy-amaliy asoslarini o'rgangan. «Qurilish materiallari bozori» tushunchasi rossiyalik olim V.A.Jukov fikriga ko'ra «...qurilish materiallari bozorini qurilish materiallari sanoati korxonalari (qurilish xomashyosi, mahsulotlari va tuzilmalari) yakuniy mahsulotlarining aylanish sohasi bo'lib, ular doirasida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning uch turi shakllanadi: ishlab chiqarish subyektlari o'rtasidagi raqobat munosabatlari; vositachilar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar» dan shakllanadi^[10]. Bundan tashqari I.S.Rafael tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: «Qurilish materiallari bozori - bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun maxsus sharoitlar, ishtirokchilarning o'ziga xos manfaatlari, individual infratuzilma bilan tavsiflangan munosabatlar tizimi bo'lib, uning doirasida

ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, vositachilar, atrofda bozor muhiti vakillarining manfaatlari qurilish materiallari va mahsulotlarini sotib olish va sotish bo'yicha, barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shakllangan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari muvofiqlashtiriladi»^[9].

O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, avvalo, har bir viloyat hududida qurilish materiallari sanoatini asosiy xomashyo bazasi borligiga qarab rejalashtirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzu doirasida xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganildi. Tadqiqotda qurilish materiallari sanoati, qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi, qurilish ishlari ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanilgan. Iqtisodchi olimlarning fikrlari hamda qonunchilikdagi me'yoriy hujjatlarga asoslanib, analiz, sintez, induksiya va deduksiya usullarini qo'llagan holda mavzu bo'yicha tadqiqot olib borilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda qurilish materiallari sanoati yildan yilga rivojlanib bormoqda. Yangi turdagi innovatsion qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'paymoqda. Quyidagi jadvalda so'nggi olti yilda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan qurilish materiallari ishlab chiqarish va unda Namangan viloyati ulushi tahlil etilgan. Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini boshladi.

1- jadval

Namangan viloyati va O'zbekiston Respublikasida 2017-2022-yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish tahlili

mlrd.so'm

Ko'rsatkichlar	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	Namangan	4 615,50	6 586,60	8 818,10	11011,90	14695,10	18120,5
	O'zbekiston	148816,00	235340,70	322535,80	368740,20	456056,10	553265
	Respublikadagi ulushi %	3,1	2,8	2,7	3	3,2	3,27
Jumladan Qurilish materiallari ishlab chiqarish	Namangan	193,2	303,7	369,9	570,8	693,6	797,9
	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi %	4,2	4,6	4,2	5,2	4,7	4,4
	O'zbekiston	8069	12956	16841	17889,3	23030,2	25523,1
	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi %	5,4	5,5	5,2	4,9	5	4,6
	Respublika qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi ulushi %	2,4	2,3	2,2	3,2	3	3,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'rganilayotgan davr oralig'ida 3,9 barobarga o'sib, respublikada ulushi 2022-yilda 3,2 foizni tashkil etdi. Viloyatda 2022-yil davomida 797,9 mlrd.so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoatdagi ulushi 4,4 foizni tashkil etdi. So'nggi olti yil davomida viloyatda qurilish materiallari ishlab

chiqarish hajmi 4,1 barobarga o‘sgan bo‘lsa-da, respublikada ulushi sezilarli darajada past bo‘lib qolmoqda va 2022-yilda 3,1 foizga yetdi.

2017-2022-yillarda viloyatda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi Respublika umumiy o‘shish ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, qurilish materiallari ishlab chiqarishning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichi sezilarli darajada past bo‘lib qolmoqda. Aholi jon boshiga qurilish materiallari ishlab chiqarish ko‘rsatkichi viloyatda 2022-yil davomida respublika ko‘rsatkichidan 451,4 ming so‘mga kamligi aniqlandi. Ammo 2017-yil holatii bilan solishtirganda viloyat ko‘rsatkichi 4,1 barobarga o‘shishga erishilgan, respublikada esa bu ko‘rsatkich 3,1 barobarni tashkil etmoqda.

2- jadval

Namangan viloyatida qurilish ishlari hajmi va qurilish materiallari ishlab chiqarish, chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari

Yillar	Qurilish ishlari		Qurilish materiallari ishlab chiqarish		Qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi	
	hajmi (mlrd. so‘m)	2017-yilga nisbatan o‘zgarish nisbati,%	hajmi (mlrd. so‘m)	2017-yilga nisbatan o‘zgarish nisbati,%	hajmi (mlrd. so‘m)	2017-yilga nisbatan o‘zgarish nisbati,%
2017	1475,2	1	193,2	1	187,3	1
2018	2257,6	1,5	303,7	1,6	252,8	1,3
2019	3471	2,4	369,9	1,9	383,8	2,0
2020	4678,2	3,2	570,8	3,0	564,6	3,0
2021	5556,73	3,8	693,6	3,6	735,8	3,9
2022	6653,2	4,5	797,9	4,1	899,0	4,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tahlil qilinayotgan davrda viloyatda qurilish ishlari hajmi 4,5 barobarga o‘sgan, viloyatda aholi va qurilish firmalari tomonidan amalga oshirilayotgan qurilish ishlari hajmi yildan yilga ortib bormoqda, ammo bu ko‘rsatkich viloyatning qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi o‘shish ko‘rsatkichidan sezilarli darajada pastligi tahlil qilindi. Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi mazkur davrda 604,7 mlrd so‘mga ko‘payib, o‘shish ko‘rsatkichi 4,1 barobarga, qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi esa 4,8 barobarga o‘shishga erishildi va 899 mlrd so‘mni tashkil etdi. Respublikaning qurilish materiallari ishlab chiqarish ko‘rsatkichida Namangan viloyati ulushi 2017-yil 2,4 %, 2022-yil bu ko‘rsatkich 3,1 % ni tashkil etdi. 2022-yilda viloyatda aholi jon boshiga qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 272,2 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi esa 306,7 ming so‘mni tashkil etgan. Viloyatda qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichlar ichida eng yuqori o‘shishga egishgan. Qurilish materiallariga bo‘lgan talabning asosiy qismini qurilish tashkilotlari xosil qiladi. Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada o‘shishga erishildi.

3- jadval

Namangan viloyatida qurilish materiallari chakana savdo aylanmasining 2017-2022-yillardagi dinamikasi

№	Viloyat	2017-yil (mlrd. so‘m)	2022-yil (mlrd. so‘m)	Aholi jon boshiga qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi 2022 yil (ming so‘m)
1	Namangan	187,3	899	306,7
	O‘zbekiston bo‘yicha jami	1756	11649	330,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Viloyatda qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi 2017-yilga nisbatan 4,7 barobar o‘shishga erishilgan, respublikada bu ko‘rsatkich 6,6 barobarni tashkil etdi. Namangan viloyatida qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi 2017-2022-yillarda o‘zgarishi Respublika ko‘rsatkichidan yuqori sezilarli darajada past ko‘rsatkichni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Namangan viloyatida aholi jon boshiga qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi ko‘rsatkichi 2022-yilda 306,7 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa-da, viloyatda mazkur ko‘rsatkich respublika ko‘rsatkichidan 24 ming so‘mga kam bo‘lmoqda.

4- jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Namangan viloyatida 2017-2022-yillarda qurilish materiallari eksport va import ko‘rsatkichlari tahlili

mln AQSh. doll

Ko‘rsatkichlar	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	O‘zgarish nisbati,%
Eksport	O‘zbekiston	152,7	70,9	90,6	140,9	211,2	299,5	190
	Namangan	0,3	0,9	1	1,9	4,1	6,7	22,3 m
Import	O‘zbekiston	967,9	1200,8	1330,0	1187,0	1381,7	1653,1	170
	Namangan	29,9	49,3	43,3	45,3	52,1	57,7	190

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

So‘nggi olti yil davomida mamlakatimizda qurilish materiallari eksporti 1,9 barobarga o‘sgan bo‘lishiga qaramay qurilish materiallari importi ko‘rsatkichi sezilarli darajada yuqoriligicha qolmoqda. Ammo tahlil qilinayotgan davr oralig‘ida qurilish materiallari importi 1,7 barobarga o‘sgan. Namangan viloyatida qurilish materiallari eksporti mazkur davrda 23,8 barobarga o‘shishga erishgan. Import esa 2 barobarga ko‘paygan. 2022-yilda Respublika qurilish materiallari eksporti tarkibida Namangan viloyati 2,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Respublika qurilish materiallari tarkibida Namangan viloyati ulushi 3,5 foizni tashkil etgan.

Viloyatda amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ijobiy ta’sir etmoqda. 2021-2022-yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha 160 ta, 555,0 mln dollarlik yirik loyihalar amalga oshirilishi belgilangan bo‘lib, natijada 8802 ta doimiy ish o‘rni yaratilishiga erishildi. Jumladan Qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha viloyatda 2021-yilda 121 ta 279,4 mln dollarlik yirik loyihalar ishga tushirildi. Buning natijasida viloyatda qurilish materiallari eksport hajmi oshishiga va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortishiga erishildi. Chust tumanida yangi foydalanishga topshirilgan sement zavodi viloyatning ma’lum talablarini qondirmoqda. Pop tumanida yana bir loyiha ishga tushishi natijasida yiliga 400 ming tonna sement ishlab chiqarish imkoni yaratildi.

Xulosa va takliflar. Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish holati tahliliga ko‘ra keyingi yillarda ishlab chiqarish hajmi o‘sib bormoqda. Qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi so‘nggi besh yil ichida 5 barobarga oshdi. Mamlakatimizda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida viloyatning ayrim tumanlari qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashmoqda. Namangan viloyatida qurilish materiallari sanoati va bozorini yanada rivojlantirish uchun yana qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalanish ijobiy natijalar beradi deb hisoblaymiz.

Namangan viloyatida qurilish materiallari sanoati va savdosini yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- ✓ viloyat uchun qurilish materiallari ulgurji va chakana savdosini elektron platformasini yaratish lozim;
- ✓ har bir tuman markazlarida qurilish materiallari ulgurji savdo komplekslarini (kerakli qo‘shimcha xizmatlar transport, yetkazib berish xizmati, quruvchilar bilan aloqa o‘rnatishga ko‘maklashish) tashkil etish kerak;

✓ hududlarning mavjud imoniyatlaridan kelib chiqqan holda talab yuqori bo‘lgan import mahsulotlarini mahalliyashtirish bo‘yicha yangi korxonalar tashkil etilishini yanada rag‘batlantirish va ularga uzoq muddatli imtiyozi kreditlar berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi (№PQ-4335) “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori// www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi (PF-6244 sonli) Farmoni // www.lex.uz
3. Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции / Э. Чемберлин. - М.: Экономика, 1996. - 351 с.;
4. Тироль Ж. Рынки и рыночная власть: теория организации промышленночти: в2-х т./пер.анг.под ред. В.М.Гальперина и Н.А.Зенкевича. Спб: Экономическая школа, 2000г.
5. Шерер Ф. Д. Росс. Структура отраслевых рынков: Пер с англ. / Ф. Шерер, Д. Росс. - М.: ИНФРА-М, 1997. - 698 с.;
6. Андашев С.Б. Теория организации отраслевых рынков: Учеб./ Андашев С.Б, Н.М. Розанова.- М: ИЧП . “Издательство Магистр” 1998г.;
7. Вурос Л. Экономика отраслевых рьвков / Л.Вурос, Н.Розанова. - М.: МГУ, 2000.-312 с.
8. Розанов Н.М. Квазиконкурентные рынки-реальность российской экономики/ Н.М.Розанов,
9. И.С.Рафаэль “Управление ассортиментным предложением предприятия на основе маркетингового подхода” Автореферат кан.экон.наук Оренбург-2010 10-с;
10. В.А.Жуков. Методы управления результативностью рынка строительных материалов на уровне региона. Дисс.кан.эко.наук. Волгоград-2005 г
11. А.Дж.Султанов. “Механизм повышения эффективности маркетинговой деятельности коммерческо- посредческих организаций в условиях либерализации экономики” диссертация на учёной степени доктора экономических наук. Тошкент 2008 г.
- 12.D.Y.Matrizayeva “Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishning ilmiy-amaliy asoslari” PhD Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.Toshkent-2020 y.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi stat.uz

<p>З.Усубжонов</p> <p>Развитие промышленности производства строительных материалов в Наманганской области</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются меры, реализованные в нашей стране по развитию промышленности строительных материалов в последующие годы. В ней проанализированы производство строительных материалов, строительные работы и розничный оборот строительных материалов в Наманганской области и Республике Узбекистан в 2017-2022 годах. Даны предложения и рекомендации по развитию промышленности строительных материалов и рынка строительных материалов.</p> <p>Ключевые слова: промышленные мощности, розничный товарооборот, строительная деятельность, цепочка создания стоимости, драйвер.</p>	<p>Z.Usubjonov</p> <p>Development of construction materials production industry in Namangan region</p> <p>Abstract. The article examines the measures implemented in our country for the development of the construction materials industry in the following years. It analyzes the production of building materials, construction work and retail turnover of building materials in the Namangan region and the Republic of Uzbekistan in 2017-2022. Proposals and recommendations for development of construction materials industry and construction materials market are given.</p> <p>Keywords: building materials market, industry potential, retail turnover, domestic industry, construction work, value chain, driver.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.